

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI**

XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

**2025-2/4
Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

Xiva-2025

Bosh muharrir:*Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.***Bosh muharrir o‘rinbosari:***Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.***Tahrir hayati:**

Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.
Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof.
Abduhalimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d., prof.
Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d., prof.
Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad.
Ametov Yakub Idrisovich, b.f.d., prof.
Babadjanov Xushnut, f.f.n., prof.
Bahodirova Feruza Bahodir qizi, PhD, dots,
Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dos.
Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d.
Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof.
Gandjayeva Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x.
Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d.
Durdiyeva Gavhar Salayevna, arx.f.d.
Ibragimov Baxtiyor To‘laganovich, k.f.d., akad.
Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof.
Ismailov Is‘haqjon Otabayevich, f.f.n., dos.
Jumaniyozov Otaboy, f.f.d., prof.
Jumaniyozov Zoxid Otaboyevich, f.f.n., dos.
Jumanov Murat Arepbayevich, b.f.d., prof.
Kadirova Shaxnoza Abduxalilovna, k.f.d., prof.
Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x.
Karabayev Ikramjan Turayevich, q/x.f.d., prof.
Karimov Ulug‘bek Temirbayevich, DSc
Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof.
Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dos.
Qutlijev Uchqun Otaboyevich, f-m.f.d., prof.
Lamers Jon, q/x.f.d., prof.
Maykl S. Enjel, b.f.d., prof.
Maxmudov Rauffjon Baxodirovich, f.f.d., k.i.x.
Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof.
Matniyozova Hilola Xudoyberganovna, b.f.d., prof.
Masharipova Feruza Jumanazarovna, PhD

Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d.
Najmeddinov Axmad Raxmatovich PhD, dotsent
Pazilov Abduvayit, b.f.d., prof.
Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dos.
Ramatov Bakmat Zaripovich, q/x.f.n., dos.
Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof.
Raximov Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof.
Raximova Go‘zal Yuldashovna, f.f.f.d., dos.
Ro‘zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.
Ro‘zmetov Dilshod Ro‘zimboyevich, g.f.n., k.i.x.
Ruzmetov Davron Ibrogimovich, PhD
Sadullayev Azimboy, f-m.f.d., akad.
Salayev San‘atbek Komilovich, i.f.d., prof.
Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d.
Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof.
Safarov Alisher Karimdjanovich, b.f.d., dos.
Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof.
Sobitov O‘lmasboy Tojxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.
Sotipov Goyipnazar, q/x.f.d., prof.
Tojibayev Komiljon Sharobiddinovich, b.f.d., akad.
Xollijev Askar Ergashevich, b.f.d., prof.
Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d.
Cho‘ponov Otanazar Otojonovich, f.f.d., dos.
Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof.
Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dos.
Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof.
O‘razboyev G‘ayrat O‘razaliyevich, f-m.f.d.
O‘rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.
Hajiyeva Maqsuda Sultonovna, fal.f.d.
Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.
Xudayberganova Durdona Sidiqovna, f.f.d.
Yuldashev Xamza Kamalovich, PhD
Zaripova Ranojon Zaripovna, PhD, dotsent

Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№2/4 (123), Xorazm Ma‘mun akademiyasi, 2025 y. – 430 b. – Bosma nashrning elektron varianti - <https://www.mamun.uz/bulletin>

ISSN 2091-573 X

Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi – Xorazm Ma‘mun akademiyasi

Husanboyeva A.U. Comparative analysis of key mythological characters	99
Imomov E.T. Hikoyada ma'naviy fojeaviylik ifodasi talqini	102
Jabborova G.F. Ingliz badiiy diskursida qo'rquv konsepti	105
Jumaniyazov A., Xodjayeva G.B. Yana bir bor "tarjima" haqida	107
Jumanov B.K. Sayqaliyning lirik asarlarida badiiy san'atlardan foydalanish uslubi	113
Jumanov B.K. Sobir Sayqaliy lirikasida she'riy san'atlarni qo'llash mahorati	116
Jumayeva O.I. Lingvomadaniyatshunoslikda madaniy kodlarning tahlili va tasnifi	120
Kamalova A.I. The uniqueness of the artistic interpretation of time, space in a creative approach to tradition	123
Karabaeva B.B. The impact of typological differences on the conceptualization of perception in english and uzbek	126
Karimova D.H., Jumayev A.A. Aka-uka Grimm ertaklarining bevosita va bilvosita o'zbekcha tarjima variantlari xususida	130
Karimova Z.G' Turli tizimli tillarda modal so'zlarning lingvistik xususiyatlari	133
Kasimova N.F. Translation as a cognitive process	136
Kayumova Sh.K. O'zbek va ingliz tillarida "ko'l" nomlari bilan bog'liq maqollarning leksik-semantik xususiyatlari	139
Khabibullayeva G.N. Jadidlar nasriy asarlarida marosim va urf-odat bilan bog'liq etnografizmlar	141
Khan A., Yorova S.K. Clinical terminology. General idea concerning clinical terminology. Word-formation greek suffixes and prefixes	144
Khasanov M.A. A comparative-typological analysis of morphonological alternations in english, uzbek, and russian	146
Kozieva I.K. Russian anthroponymy	151
Kurbanova Z.O. Paremiyalarning milliy-madaniy o'ziga xosligi to'g'risida	154
Madaliyeva D.B. Sociolinguistic aspects of criticism and praise in english	157
Majidova Sh.K. Surxondaryo toponimlari tarkibida qo'llanuvchi so'zlar	159
Mamadaliyeva H.B. Contrastive analysis of paremological units with the concept "native country" in english and uzbek languages	161
Mamajonova M.M. O'zbek tilshunosligida juft so'zlar talqini va tadqiqi	164
Mamataliyeva N.X. Ingliz va o'zbek tillarida tez aytishlarning lingvopragmatik tahlili	167
Mardonov M.S. Amerika va o'zbek latifalarining madaniy farqlari va latifalarning janr tabiati	170
Masharipova F.J., Raximova R.M. Sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlantirishda vygotskinig zpd va scaffolding yondashuvlari	172
Matkarimova G.A. Ingliz tilida metonimiya tamoyillariga asosan nomlangan fitonimlar	178
Matnazarova S. Hayot falsafasi – shoir estetik konsepsiyasi asosi	181
Matyakubov X.X. O'zbek va ingliz toponimlari etimologiyasidagi o'xshashliklar va farqlar	185
Mavlonova M.D. Axborot texnologiyalari sohasida o'zlashmalar qo'llanilishidagi muammolar	188
Maxmudova M.M. S.S.Buxoriy va Y.V.Gyote ijodidagi ruhiy bog'liqlik va Y.V.Gyote asarlari S.S.Buxoriy talqinida	191
Merganova N.M. Germaniyada migratsiyaning nemis tili rivojlanishiga ta'siri	194
Mirsanova M.X. Sarguzasht-fantastik asarlarning janr imkoniyatlari	196
Mukhtarova M. The role of english in Uzbekistan's globalization	199
Muratxodjayeva F.X. Kognitiv tilshunoslikda konsept tushunchasining nazariy tahlili	202
Musayev A.S. Xurjun so'zi- arxaik so'zmi?	206
Mustafayev Sh.B. Zamonaviy jamiyatda virtual muloqot: o'ziga xosliklar va ta'sirlar	208
Musurmonqulov A. O'zbek tili uyadosh so'zlarini semantik maydon asosida tasniflash	211
Najmiddinov M. Formation of a synthetic words expressing action and state in the uzbek language and their expression in the thesaurus	214

2. Lakoff, G. (1987). *Women, Fire, and Dangerous Things*. The University of Chicago Press.
3. Langacker, R. W. (2008). *Cognitive Grammar: A Basic Introduction*. Oxford University Press.
4. Talmy, L. (2000). *Toward a Cognitive Semantics: Vol. I*. The MIT Press.
5. Ibragimov, S. (2017). *Aspects of Uzbek Semantic Typology*. Tashkent: Fan.
6. Karimov, T. (2019). "Typological Features of Perception in Uzbek." *Uzbek Linguistics Journal*, 12, 45–59.
7. Nurmonov, A. (2001). *Comparative Analysis of English and Uzbek Lexical Semantics*. Tashkent: O'qituvchi.
8. Wierzbicka, A. (1996). *Semantics: Primes and Universals*. Oxford University Press.
9. Evans, V., & Green, M. (2006). *Cognitive Linguistics: An Introduction*. Routledge.
10. Croft, W. (2003). *Typology and Universals* (2nd ed.). Cambridge University Press.

UO'K 82-34=512.145=3.112.2

AKA-UKA GRIMM ERTAKLARINING BEVOSITA VA BILVOSITA O'ZBEKCHA TARJIMA VARIANTLARI XUSUSIDA

D.H.Karimova, PhD, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

A.A.Jumayev, PhD, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Barcha xalqlarning ma'naviy merosida qadimdan hozirgacha mustahkam o'rin tutib kelayotgan ertaklarga oid ilmiy tadqiqotlar ko'lami tarjimashunoslik, tilshunoslik, adabiyotshunoslik sohalarida yanada ortib bormoqda. Dunyo tarjimashunosligida hozirgacha nemis ma'rifatchilik adabiyotining g'oyaviy-badiiy takomiliga katta hissa qo'shgan aka-uka Grimmilar ertaklari qator xorijiy tillarga, jumladan, o'zbek tiliga ham bevosita va bilvosita ko'p tarjima qilingan. Natijada ularning tarjima variantlari, invariantlari paydo bo'lganki, tarjimashunosligimiz bu hodisalarning nazariyasini puxta o'zlashtirishni, har biriga xos paradigmatic va kognitiv, lingvokulturologik xususiyatlarni aniq yoritib berishni taqozo etadi.

Kalit so'zlar: variantlilik, invariant, paradigmatic, kognitiv, lingvokulturologik xususiyatlar, fonetik prinsip, tarjima variant, motiv.

Аннотация. Масштабы научных исследований сказок, прочно вошедших в духовное наследие всех народов с древнейших времен, возрастают в области переводоведения, языкознания, литературоведения. Сказки братьев Гримм, внесших большой вклад в идейно-художественное развитие немецкой просветительской литературы в мировом переводоведении, были прямо и косвенно переведены на ряд иностранных языков, в том числе и на узбекский. В результате появились их переводческие варианты и инварианты, так что наше переводоведение требует основательного овладения теорией этих явлений, четкого выяснения характерных для каждого из них парадигматических и когнитивных, лингвокультурологических особенностей.

Ключевые слова: вариант, инвариант, парадигматические, когнитивные, лингвокультурологические характеристики, фонетический принцип, вариант перевода, мотив.

Abstract. The scope of scientific research on fairy tales, which have been firmly established in the spiritual heritage of all nations since ancient times, is increasing in the fields of translation studies, linguistics, and literary studies. The fairy tales of the Brothers Grimm, who have made a great contribution to the ideological and artistic development of German enlightenment literature in world translation studies, have been directly and indirectly translated into a number of foreign languages, including Uzbek. As a result, their translation variants and invariants appeared, so that our translation studies requires a thorough mastering of the theory of these phenomena, a clear elucidation of the paradigmatic and cognitive, linguo-cultural features specific to each of them.

Key words: variant, invariant, paradigmatic, cognitive, linguistic and cultural characteristics, phonetic principle, translation variant, motive.

Kirish. Dunyo xalqlari o'rtasidagi madaniy almashinuv va til orqali ifodalangan g'oyalar, afsonalar va ertaklar ko'plab tadqiqotlarga sabab bo'lgan. Ayniqsa, Grimm ertaklari kabi klassik asarlar, turli tillarga tarjima qilinishi bilan birga, ularning mazmuni va shaklida o'zgarishlarga uchraydi. Aka-uka Grimmilar tomonidan to'plangan ertaklar Germaniya xalqining boy madaniy merosini aks ettiradi. Ushbu ertaklar faqatgina fantastik qahramonlar va voqealar bilan cheklanmay,

balki axloqiy saboqlarni ham o'z ichiga oladi. Ularning badiiy uslubi, til ifodasi va qahramonlarining xarakteristikasi ko'plab tarjimalarda muhim rol o'ynaydi [5;].

Ertaklarda ko'p qo'llaniladigan sehrli raqamlardan yana biri yettidir. Bunda yetti raqami miqdorni emas, balki «ko'p» tushunchasini anglatishga xizmat qiladi. Bu raqam nafaqat o'zbek, balki nemis xalq ertaklarida ham ko'p qo'llanishi kuzatiladi. Bunga aka-uka Grimmlar ertaklari orasida ham ko'plab misollar topiladi. “Yetti qarg'a” (“Die sieben Raben”), “Yeti shahzoda”, “Yeti botir”, “Yeti shvab” („Die sieben Schwaben“) kabilar shular jumlasidandir. Hatto aka-uka Grimmlar ertaklarining tarjimalaridan tartib berilgan va 1954-yilda chop qilingan bir to'plam “Yeti qarg'a” deb nomlanganini alohida ta'kidlash joiz [1; 37]. To'plam shu nomdagi ertak tarjimasi bilan boshlangan. Bu va yana ushbu to'plamning mundarijasidan joy olgan “Botir tikuvchi”, “Bo'ron kampir”, “Oltovlon bir bo'lib butun dunyoni aylanib chiqamiz”, “Bremen muzikachilari”, “Yosh pahlavon”, “Uch og'a-ini”, “Quyov bilan tipratikan”, “Sirli odamchalar”, “Foydali ish”, “Boyqush”, “Yalqov Geyns”, “Yeti botir”, “O'rmondagi uycha”, “Jinqarcha” ertaklari o'rin olgan [6;].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Aka-uka Yakob va Vilgelm Grimmlar nemis xalqining eng sevimli ertakchi-yozuvchilari bo'lib, ular yaratgan ertak butun jahon kitobxonlarning e'tiboriga tushgan. Bunda, albatta, ularning turli tillarga tarjima qilinishi muhim ahamiyat kasb etgan. Ular yaratgan ertaklarning birinchi to'plami “Bolalar va oila” (“Kinder und Familie”) nomi bilan 1812-yilda, 1815-yilda ikkinchisi, 1822-yilda esa uchinchi kitoblari nashr qilingan. Bu kitoblar aka-uka Grimmlarning nomini dunyoga tanitdi va tez orada jahonning ko'pgina boshqa tillariga ham tarjima qilina boshlandi. Umuman aytganda, to'plamda aka-uka Grimmlarning 15 ta ertagi tarjimasi berilgan. Shundan “Bo'ron kampir”, “Bremen muzikachilari”, “Yosh pahlavon”, “Sirli odamchalar”, “Foydali ish”, “Yalqov Geyns”, “Botir tikuvchi” – jami yettita ertak 1963-yilda **“Bo'ron kampir”** nomi bilan chop etilgan ertaklar to'plamida takror keltirilgan [2; 102]. Shular orasida “Bo'ron kampir” ertagi uch nafar boshqa-boshqa tarjimonlar tomonidan o'girilgani jihatidan variantlilik hosil qilgan. Bular: 1. M.Sodiqova varianti – 1954-yil. 2. R.Fuzailova varianti – 1963-yil. 3. Surayyo To'raxonova varianti. – 1978-yil.

Faqat bu variantni Surayyo To'raxonova bevosita emas, bilvosita rus tili orqali o'zbek tiliga o'girgani jihatidan farqlanib turadi. Bu variant joy olgan to'plam “Aka-uka Grimm ertaklari” deb nomlangan [3; 69]. Uning mundarijasidan “Bremen mashshoqlari”, “Quyov bilan tipratikan”, “Somon, cho'g' va loviya”, “Bir xumcha shovla”, “Bo'ron kampir”, “Yeti qarg'a”, “Yalqov Geyns”, “Mitti odamchalar”, “Oqoyim va Guloyim”, “Uch baxtiyor”, “Qo'li gul qizcha”, “Botir tikuvchi”, “Tulki bilan g'ozlar”, “Uch aka-uka” ertaklari ham o'rin olgan.

Ko'rinyaptiki, bular orasida “Bremen mashshoqlari”, “Quyov bilan tipratikan”, “Bir xumcha shovla”, “Bo'ron kampir”, “Yeti qarg'a”, “Yalqov Geyns”, “Mitti odamchalar”, “Oqoyim va Guloyim”, “Botir tikuvchi”, “Uch aka-uka” ertaklari qayta-qayta tarjima qilingani tufayli variantlilik hosil qilgan.

“Yeti qarg'a” yoki “Yeti shahzoda qarg'a” ertagining tarjima variantlari qiyosi:

M.Sodiqova varianti – 1954-yil “Yeti qarg'a”	Surayyo To'raxonova varianti. – “Yeti qarg'a” 1978-yil	“Yeti shahzoda qarg'a”
<i>Ein Mann hatte sieben Söhne und immer noch kein Töchterchen, so sehr er sichs auch wünschte [8; 109];</i>		
Boshlanma-zachinidagi farq:		
Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir kishi bor ekan. Uning yetti o'g'li bor ekan-u, qizi yo'q ekan, qizlik bo'lishni juda-juda orzu qilar ekan.	Bir odamning yettita o'g'li bo'lgan ekan. U bittagina qiz farzand ko'rishni juda-juda orzu qilar ekan.	Bir odamning yetti o'g'li bo'lib, bitta ham qizi bo'lmagan ekan. U esa qizi ham bo'lishini juda-juda istar ekan.
<i>Der Vater schickte einen der Knaben eilends zur Quelle, Taufwasser zu holen: die andern sechs liefen mit, und weil jeder der erste beim Schöpfen sein wollte, so fiel ihnen der Krug in den Brunnen. Da standen sie und wußten nicht, was sie tun sollten, und keiner getraute sich heim. Als sie immer nicht zurückkamen, ward der Vater ungeduldig und sprach: "Gewiß haben sie's wieder über ein Spiel vergessen, die gottlosen Jungen [8; 108]."</i>		
Voqealar rivoji		
Otasi o'g'illaridan birini quduqqa <u>yuboripti</u> . Qolgan olti o'g'il ham u <u>blan</u> birga yugurib <u>ketishipti</u> . Quduq boshida to'polon <u>boshlanipti</u> – <u>harqaysisi</u> avval suv	Ota o'g'illaridan birini suv keltirishga jo'natibdi. Qolgan oltita aka-uka ham unga ergashib boraverishibdi. Ularning bari suvni birinchi bo'lib olib kelishga shoshilishibdi. Biroq ehtiyotsizlik	Shuning uchun ota o'g'illaridan birini yaqindagi quduqqa suvga yuboribdi. Uning ketidan qolgan olti aka-uka ham yuguribdi.

olishga <u>intilipti</u>, – axiri ko'zachani quduqqa tushirib <u>yuborishipti</u>. So'ngra ular quduq boshida to'planib nima qilishni bilmay hayron bo'lishipti. Uyga ko'zasiz qaytishga <u>qo'rqishipti</u>. O'g'illaridan hech darak bo'lmaganidan keyin toqati toq bo'lgan ota jahl <u>blan</u>: – Yana o'yin <u>blan</u> bo'lib, hamma gapni <u>unutishipti</u>, shekilli, yalqov o'yinqaroqlar!	qilishganidan ko'za quduqqa tushib ketibdi. Bolalar nima qilishlarini bilmay gangib qolishibdi. Otalarining oldiga qanday qilib suvsiz borishsin axir? Suvga ketgan o'g'illarining hech biridan darak bo'lavermagach, otaning toqati ham tugabdi. Ular nega kelmayapti? Suvga ketdik deb qayerga gumdon bo'lishdi ekan? Yoki o'tloqda o'ynab yurishganmikin?	Aka-ukalar quduq yonida janjallashib qolishibdi – axir har qaysisi ham suvni birinchi bo'lib olgisi kelar ekan-da. To'palonda ko'zani quduqqa tushirib yuborishibdi. Ular quduqning atrofida to'planishib, nima qilishlarini bilmay turishaverishibdi; ko'zasiz uyga qaytishga qo'rqishibdi. Otaning kuta-kuta toqati toq bo'libdi. Ulardan esa hamon darak yo'q emish.
Yechim sari siljish: safar motivi		
Kunlardan bir kun qiz butun dunyoni aylanib akalarini topish uchun uyidan sekingina chiqib ketipti. Yo'lda ochdan o'lmaslik uchun biroz non, tashnalikdan qiynalmaslik uchun bir ko'za suv, charchaganda o'tirib dam olish uchun bitta stulcha va ota-onasidan esdalik uchun bitta uzuk <u>olvolipti</u>.	Nihoyat u akalarini izlab topishga ahd qilibdi va hech kimga aytmasdan safarga o'tlanibdi. Qizcha yo'lga kerakli buyumlar, oziq-ovqat va ota-onasi sovg'a qilgan uzukni ham o'zi bilan olib ketibdi.	U kunlarning birida dunyoni kezib, akalarini topish maqsadida uydan chiqib ketibdi. U uydan ota-onasidan esdalik uchun bir uzuk, ochlikdan o'lib ketmaslik uchun ozgina non, suvsab qolmaslik uchun bir ko'zacha suv, yo'lda o'tirib hordiq chiqarish uchun kursicha olibdi, xolos.
Ertakda yetti raqami		
Mitti odam qarg'alarga yetti talinkada ovqat va yetti stakanchada suv keltirib qo'yipti. Singilcha harqaysi talinkadagi ovqatdan jindak-jindakdan totib ko'ripti, <u>harqaysi</u> stakandagi suvdan bir ho'plamdan ichib ko'ripti. Eng oxirgi stakanchaga uyidan olib kelgan uzukni tashlab <u>qo'yipti</u>. Havoda shov-shuv tovushlari eshitiibdi. – Qarg'alar uyga qaytib kelyaptilar, – <u>deпти</u> mitti odam.	Shundan so'ng u dasturxon yozib, yettita tovoqchada ovqat, yettita kosachada sharbat keltiribdi. Qizcha ataylab har bir tovoqchadan bir chimdimdan ovqat, har bir kosachadan bir qultumdan sharbat ichibdi va uzukchasini yettinchi kosachaning ichiga solib qo'yibdi. O'zi esa darrov bir burchakka berkinib olibdi. Shu payt birdan qushlarning patillagan tovushi eshitiibdi. Yetti nafar qarg'a kelib ovqatlanishga o'tirishibdi.	Pakana odamcha qarg'alarga yettita likopchada ovqat, yettita qadahchada suv keltirib qo'yibdi. Singil esa har qaysi likopchadan bir luqmadan totibdi, har qaysi qadahchadan bir qultumdan ichibdi. So'nggi qadahchaga esa uyidan olib kelgan uzukni tashlabdi. Ko'p o'tmay havoda qanotlarning shovillashi eshitiibdi. – Qarg'alar uyga qaytib kelishyapti, – debdi pakana odamcha.
Und sie herzten und küßten einander, und zogen fröhlich heim [8;112].		
Ertak tugallanmasi		
Keyin sevinchlarga to'lib, uylariga jo'nab <u>ketishipti</u>.	Inoq aka-ukalar va singil bir-birlarini sog'inch ila bag'riga bosishibdi va tezda o'z uylariga, ya'ni mehribon ota-onalari diydoriga shoshilibdilar.	Keyin hammalari qo'l ushlashib, ota-onalari huzuriga jo'nashibdi.

Bu jadvalning birinchi ustunida tagiga chizilgan so'zlar o'z davridagi talaffuz (orfoepik) me'yorlarga moslab keltirilgani ko'rsatildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Umuman aytganda, M.Sodiqova 1954-yilda bevosita o'g'irgan variant bilan Surayyo To'raxonova 1978-yilda rus tili orqali bilvosita tarjima qilgan variant o'zaro qiyoslanganda, kirish qismi, voqealar rivoji, kulminatsiyasi, yechimi, asosiy motivlari talqinida tipologik va differensial belgilar borligi aniqlandi. Shu asosda ular bir-biriga nisbatan tarjima varianti sifatida e'tirof qilindi. Ular bilan bir qatorda "Yetti shahzoda qarg'a" nomi bilan tarjima qilingan ushbu ertaklarning yana bir varianti ham yonma-yon tahlilga tortildi. Bu uchala ertakda keltirilgan otaning farzandli bo'lish orzusining ushalishi, ota qarg'ishi tufayli o'g'illarning qush (qarg'a) ko'rinishiga evrilishi, yo'l, uzuk-belgi motivlari, sehrli ertaklarga xos tilsimotning yechilishi singarilar ularni umumlashtirgan asosiy belgilardir. Faqatgina "Yetti shahzoda qarg'a" ertagida qarg'aga evrilgan yigitchalar shahzoda ekani bilan "Yetti qarg'a"dagi bolalar obrazidan ijtimoiy mavqei ta'kidlanayotgani bilan farq qiladi.

Shuni aytish joizki, nemis tilida yaratilgan nutqiy ifodaning shakl va mazmun birligini unga noqardosh hisoblangan o'zbek tilida saqlash, qayta yaratish o'ziga xos murakkab jarayondir. Bu mutarjimdan ijodkorlik mahorati hamda katta mas'uliyatni talab etadi. Tarjimashunoslikning esa o'z talab, norma, usul va qonuniyatlari bor. Aka-uka Grimmlarning ertaklari boy syujeti, barkamol badiiyati va ommaviyligi bilan jahon folklorida o'z o'rniga ega. Ulardagi obraz va personajlar tavsifining tarjimada aniq aks etishi o'quvchining tasavvurini kengaytiradi. Ularning o'zbekcha tarjimalari xalqimiz vakillarini nemis xalqining milliy an'analari, turmush tarzi, kiyim-kechaklari, milliy taomlari, yashash o'rne, muhiti, mehnat sharoiti, o'ziga xos axloq-odob qoidalari bilan tanishtiradi. Ba'zan tarjimalar asosida nemis tilidagi ayrim so'zlarning o'zbek tiliga o'zlashtirilgani ham ko'zga tashlanadi.

Ba'zi tarjimalarda nemis millati ma'naviyati va madaniyatini namoyish qiluvchi detallar mutarjim aybi bilan o'zbekona tushunchalarga bog'lab ifodalanishi natijasida ko'milib ketgani ayonlashadi. Xususan, tasvirlangan voqealarni "mahalliy sharoitlarga moslashtirish" hollari yuz bergan. Natijada nemis millatiga xos ayrim taom, kiyim-kechak, musiqa asboblari nomlari bizdagi shunday narsalar nomi bilan o'zgartirib berilgani ko'rinadi.

Xulosa va takliflar. Aka-uka Grimm ertaklari tarjimasi uchun asar tanlashda, avvalo, ularning mavzusiga, ba'zan shaklining, syujetining ixchamligi yuqori qiziqarliligiga, an'anaviy obraz va motivlarga egaligiga e'tibor qaratib saralangan. Chunki aka-uka Grimm ertaklarida dangasa va epchil qizlar, o'zi yosh bo'lishiga qaramay, katta aql va jismoniy qudratga ega bo'lgan yosh, uddaburon yigit-qizlar, kambag'al kosibga yordam bergan sirli mitti odamchalar, go'zal, ammo kamtarin, mehnatkash yetim qizlar obrazi alohida o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ака-ука Гриммлар. Етти қарға. – Тошкент: Ўздав нашриёти, 1954. – 128 б.
2. Ака-ука Гриммлар. Бўрон кампир. Эртақлар. – Тошкент: "Ёш гвардия", 1963. – 74 б.
3. Ака-ука Гримм эртақлари. Русчадан Сурайё Тўрахонова таржимаси. – Тошкент: "Ёш гвардия", 1978. – 80 б.
4. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – 2-е изд., стер. – М: УРСС: Едиториал УРСС, 2004.
5. Halimovna K.D. On the history of the creation of grimm brothers' fairy tales and their translations into uzbek //euro-asia conferences. – 2021. – т. 3. – №. 1. – с. 85-87.
6. Каримова Д. Х. Вариантность в переводе (на примере произведений братьев Гримм) //Вестник науки и образования. – 2019. – №. 4-2 (58).
7. Halimovna K. D. Variability and invariability in fairy tales (As the example of the translation of grimm's fairy tales) //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – 2020. – Т. 24. – №. 1. – С. 138-144.
8. https://www.grimmstories.com/de/grimm_maerchen/die_sieben_raben

UO'K 81'373:811.111

TURLI TIZIMLI TILLARDA MODAL SO'ZLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Z.G'.Karimova, dots., Toshkent davlat agrar universiteti, Toshkent

Annotatsiya. Turli tillar tizimida modal so'zlar so'zlovchining fikriga nisbatan sub'ektiv munosabatini ifodalovchi nutq birliklari hisoblanadi. Bu birliklar alohida gap shaklida yoki gap tarkibida kelishi mumkin. Gap tarkibida kelganda, gapning qaysidir qismiga yoki butun gapga tegishli bo'lishi ularning so'z-gaplik xususiyatini ko'rsatadi. Ushbu maqolada turli tillar tizimida modal so'z-gaplarning tasnifi, ularning turli kontekstlarda qo'llanishi, muloqot jarayonidagi o'rni va nutqiy ekspressiv ta'siriga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: modal so'z-gaplar, turli tizimli tillar, sub'ektiv, muloqot jarayoni, ekspressiv ta'sir.

Аннотация. Модальные слова в системе различных языков являются речевыми единицами, выражающими субъективное отношение говорящего к своему высказыванию. Эти единицы могут встречаться как в виде отдельных предложений, так и в составе предложения. Когда они встречаются в составе предложения, их связь с определенной частью предложения или с целым предложением показывает их слово-предложенческая характеристика. В данной статье особое внимание уделяется классификации модальных